



## «Aloqa xizmatlaridan foydalanganlik uchun bonus»

aksiyasi yangi tahriri 20.06.2023 yildan.

«Aloqa xizmatlaridan foydalanganlik uchun bonus» aksiyasi (keyingi o'rinlarda Aksiya) Humans sodiqlik dasturining ajralmas qismi bo'lib, «Humans» MChJning cheklanmagan doiradagi shaxslarga taklifidir.

### 1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1. Aksiya matnida katta harf bilan yozilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Shartlarning ma'nosi, agar ushbu Aksiyada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, [www.humans.uz](http://www.humans.uz) veb-saytida joylashtirilgan Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlari va Humans sodiqlik dasturi qoidalarida keltirilgan.

1.2. Aksiya ishtirokchilariga qo'yiladigan qo'shimcha talablar - Aksiyada Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartlarini qabul qilib, Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzgan va ushbu Aksiyaning 2-bo'limida sanab o'tilgan amallarni bajargan ishtirokchilar qatnashishlari mumkin.

1.3. To'lanmalar summasi - bu Ishtirokchi tomonidan ulangan va to'langan Tarif paketining narxi (to'plamga ulangan Cheksiz ilova opsiyalari, Cheksiz SMS opsiyasi xarajatlari hisobga olingan holda) va boshqa barcha Xizmatlar va Tariflar bundan mustasno. Ushbu Aksiya doirasidagi To'lanmalar summasini hisoblash uchun faqat Ishtirokchining shaxsiy hisob varag'idan yechib olingan mablag'lar hisobga olinadi. Tarif paketi va Osiyalar narxini Keshbek orqali to'lash, Aksiya bo'yicha taqdim etilgan To'lanmalar summasi va Bonusni hisoblashda hisobga olinmaydi. Ya'ni, Ishtirokchining Keshbek hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag' bilan Tarif to'plami va Osiyalar narxi to'liq to'langanda, Bonus 0 UZSni tashkil qiladi.

1.4. «Kengaytirish opsiyalari» uchun To'lanmalar summasi - Ishtirokchilar tomonidan Ulangan Tarif paketiga ulangan va to'langan kengaytirish opsiyalari narxi, masalan «150 daqiqa» opsiyasi, «1 gigabayt» opsiyasi, va Tarif paketi doirasida taqdim etiladigan va amaldagi faol Tarif paketiga ulanadigan, trafikning miqdorini oshiradigan boshqa opsiyalar (keyingi o'rinlarda – «kengaytirish opsiyalari»).

1.5. Yangi tahrirdagi aksiyaning o'tkazilish davri: 20.06.2023-yildan boshlab to bekor qilinguniga qadar muddatsiz.

## 2. Aksiya shartlari:

2.1. Tarif paketning, jumladan Cheksiz ilovalarning ulangan opsiyalari, Cheksiz SMS opsiyasining avtomatik uzayishi muvaffaqiyatli amalga oshgan ishtirokchilarga To'lanmalar summasidan 15% Bonus beriladi.

2.2. 2.1-bandda keltirilgan avtomatik uzaytirish uchun mablag' yetarli bo'lmasa, Tarif paketi, jumladan ulangan Opsiyalari bo'lgan Ishtirokchilarga bonus berilmaydi. Shaxsiy hisob raqamiga Tarif paketi va unga ulangan barcha opsiyalarni uzaytirish uchun yetarli bo'lgan pul mablag'i tushganda, To'lanmalar summasidan 5% Bonus beriladi.

2.3. Paketni ilk bor ulayotgan, yoki avval ulangan Tarif paketiga "kengaytirilgan opsiyalarni" ulayotgan, yoki Tarif paketiga Cheksiz ilovalarni ulayotganlarga To'lanmalar narxidan/«Kengaytirish opsiyalari» uchun To'lanmalar summasidan (vaziyatga qarab) 5% Bonus beriladi.

2.4. «Raqamni almashtirish», «Maxsus toifadagi raqamni tanlash» yoki «Maxsus toifadagi raqamni taqdim etish» xizmatlarini, jumladan xizmat uchun davriy to'lovlarni amalga oshirgan Ishtirokchilarga ularning Shaxsiy hisob raqamidan to'langan xizmatning To'lanmalar narxidan 5% (besh foiz) miqdordagi Bonus beriladi.

2.5. Agar biror bir asosdga ko'ra Ishtirokchi Tarif paketini yoki har qanday opsiya/xizmatni uning amal qilish muddatigacha (Tarif paketi bo'yicha/opsiya Hisob-kitob davri, xizmatning amal qilish muddati tugaguniga qadar) o'chirib qo'ysa, taqdim etilgan Bonus bekor qilinadi, Ishtirokchining Keshbek hisobi tegishlicha kamayadi, bu o'z navbatida, jumladan, Ishtirokchining Keshbek hisobida manfiy qoldiq hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin.

2.6. Bonus Ishtirokchi hisob raqamidan To'lanmalar summasi yechib olingan sanadan keyingi kuni sutkasiga bir marta beriladi.